



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG‘I

2024 - yil « 23 » dekabr 472 -son

Toshkent shahri

**Oliy va kasbiy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat
attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy va kasbiy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 13-dekabrdagi 836-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy va kasbiy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 13-dekabrdagi 836-son qarori bilan “Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizom 1-ilovaga hamda “Kasbiy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Oliy ta’lim tashkilotlari rektorlari (direktorlari) hamda kasbiy ta’lim tashkilotlari direktorlari:

yakuniy davlat attestatsiyasi(keyingi o‘rinlarda – attestatsiya)ni Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi hamda Kasbiy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarida belgilangan talablarga qat’iy amal qilgan holda tashkil etsin;

2025-yil 1-yanvardan boshlab oliy va kasbiy ta’lim tashkilotlari tegishli ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bitiruvchilarining attestatsiyasini ish beruvchi korxona va tashkilotlarda tashkil etilishini ta’minlasin;

attestatsiya komissiyasi a’ziligiga jalb etilgan mutaxassislarga qonunchilik hujjatlariga muvofiq mehnatga soatbay haq to‘lash miqdorlari asosida ularning asosiy ish joylaridagi ish haqlarini saqlagan holda haq to‘lash choralari ko‘rsin;

ish beruvchi korxona va tashkilotlarni oliy va kasbiy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining bilimi, ko‘nikmasi va malakasini baholash jarayonlariga faol jalb etsin;

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari kompetensiyasini ko'rgazmali-amaliy imtihon shaklida baholashda talab etiladigan xomashyo va yonilg'i moylash materiallarini xarid qilish bilan bog'liq xarajatlarni respublika budjetidan ajratilgan mablag'lar, to'lov-kontrakt hamda budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtirsin;

oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining attestatsiyasini tashkil etishda ish beruvchi korxona va tashkilotlarga har tomonlama uslubiy jihatdan ko'maklashsin hamda ularning bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirib borsin.

3. Oliy ta'lim tashkilotlari rektorlari (direktorlari):

har yili 31-oktabrga qadar attestatsiya oliy ta'lim tashkilotida yoki korxonada (tashkilotda) tashkil etiladigan ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar hamda ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarga mos maxsus (majburiy) fanlar (kasbiy-amaliy, klinikoldi va klinik fanlar) ro'yxatini tasdiqlasin hamda attestatsiyadan kamida **olti oy oldin** oliy ta'lim tashkilotining rasmiy veb-saytida e'lon qilsin;

har yili noyabr oyida bitiruvchilarni attestatsiyadan o'tkazish yuzasidan mos korxonalar (tashkilotlar) bilan hamkorlik shartnomalarini imzolasin;

attestatsiya boshlanishidan **olti oy oldin** xorijiy til va maxsus (majburiy) fanlar bo'yicha o'tkaziladigan sinovlar shaklini belgilasin hamda bitiruvchilar e'tiboriga yetkazsin;

attestatsiya boshlanishidan **kamida uch oy oldin** tajribali professor-o'qituvchilar hamda korxonalarning (tashkilotlarning) mutaxassislarini jalb etgan holda, attestatsiyaning dasturlarini ishlab chiqib, oliy ta'lim tashkiloti Kengashi tomonidan tasdiqlanishini va oliy ta'lim tashkilotining rasmiy veb-saytida e'lon qilinishini ta'minlasin;

bitiruv semestri boshlanishidan **kamida bir oy oldin** attestatsiya komissiyasining tarkibini tasdiqlasin;

bitiruv malakaviy ishi hamda magistrlik dissertatsiyasini himoyadan **ikki hafta oldin** antiplagiat dasturi asosida tekshiruvdan o'tkazilishini ta'minlasin.

4. Kasbiy ta'lim tashkilotlari direktorlari:

har yili 1-yanvarga qadar kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari attestatsiyasini o'tkazish yuzasidan kasb va mutaxassislikka mos korxonalar (tashkilotlar) bilan hamkorlik shartnomalarini imzolash choralarini ko'rsin;

attestatsiya boshlanishidan kamida **bir oy oldin** korxonalar (tashkilotlar) bilan kelishgan holda attestatsiyani o'tkazish jadvalini tasdiqlasin;

attestatsiyani o'tkazish jadvalini kasbiy ta'lim tashkilotining rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilsin;

attestatsiya jarayonlarini ota-onalar va kuzatuvchilar uchun alohida ajratilgan kutish joylarida onlayn translyatsiya qilish choralarini ko'rsin;

kasblarning (mutaxassisliklarning) tegishli kasbiy fanlari bo'yicha, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari qabul qilingan guruhlarida O'zbekiston tarixi fanidan davlat imtihonini test sinovlari shaklida tashkil etilishini ta'minlasin;

ko'rgazmali-amaliy imtihonlarni tegishli korxonalarda (tashkilotlarda) maxsus tashkil etiladigan sinov maydonlarida (simulyatsion laboratoriyalarda) tashkil etsin.

5. Ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta'lim sifatini ta'minlash departamenti (A. Xoliqov):

uch hafta muddatda diplom loyihasi hamda bitiruv malakaviy ishi himoya qilinadigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari ro'yxatini tasdiqlasin.

Bunda diplom loyihasi va bitiruv malakaviy ishi himoya qilinmaydigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilariga ularning xohishidan kelib chiqib, diplom loyihasi yoki bitiruv malakaviy ishi himoya qilinishiga ruxsat berilishini inobatga olsin;

bir oy muddatda oliy ta'lim tashkilotlari rektorlari (direktorlari) hamda o'quv ishlari bo'yicha prorektorlari (direktor o'rinbosarlari) uchun oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari attestatsiyasini tashkil etish bo'yicha seminar tashkil etsin.

6. Professional ta'lim tizimini rivojlantirish departamenti (O'. Alijonov):

2025-yil 1-dekbrga qadar kasbiy ta'lim tashkilotlarida Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, manfaatdor vazirlik va idoralar takliflari asosida bitiruvchilarning attestatsiyasi o'tkaziladigan korxona va tashkilotlar hamda ta'lim tashkilotlari ro'yxatini tasdiqlasin va e'lon qilsin;

2025-yil 1-yanvardan boshlab kasbiy ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarining malakasini oshirish o'quv rejalariga **"Germaniya tajribasi"** asosida bitiruvchilarni baholash bo'yicha o'quv kursini kiritsin;

ikki hafta muddatda kasbiy ta'lim tashkilotlari direktorlari va pedogoglari uchun kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari attestatsiyasini tashkil etish bo'yicha o'quv seminari tashkil etsin.

7. Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmalari boshliqlari:

attestatsiya boshlanishidan **bir oy oldin** kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining attestatsiya komissiyasi tarkibini tasdiqlasin;

bitiruvchilar soniga qarab komissiya faoliyati yil davomida tashkil etilishini nazorat qilsin;

attestatsiya jarayonlarini belgilangan tartibga muvofiq tashkil etilishi va o'tkazilishini doimiy nazoratga olsin.

8. Professional ta'limni rivojlantirish instituti (Z. Xudoyberdiyev) attestatsiya boshlanishidan **ikki oy oldin:**

O'zbekiston tarixi fani va kasbiy fanlar bo'yicha kasblarning (mutaxassisliklarning) o'quv dasturlaridagi mavzular doirasida test topshiriqlarini;

ko'rgazmali-amaliy imtihonlar shartlari va baholash mezonlarini ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

9. **Axborot xizmatlari bo'limi** (N. Abduqunduzova) mazkur qarorning mazmun va mohiyatini, shu jumladan oliy hamda kasbiy ta'lim tashkilotlari uchun oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari attestatsiyasini tashkil etish bo'yicha o'tkaziladigan seminarlarni ommaviy axborot vositalarida yoritish choralarini ko'rsin.

10. **Yuridik ta'minlash bo'limi** (B. Inoyatov) qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni **2025-yil 13-fevralga qadar** ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

11. Ushbu buyruq ijrosining nazorati vazirning birinchi o'rinbosari Sh. Daliyev zimmasiga yuklansin.

Vazir



K. Sharipov

**NUSXA
ASLIGA TO'G'RI**